



O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI: STATISTIK TAHLIL ASOSIDA YONDASHUV

Baxromov Akmal

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-3713-3117

baakmal7111@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari eksportining hozirgi holati statistik tahlil asosida o'rganilgan. 2018–2024–yillar mobaynidagi eksport ko'rsatkichlari, asosiy xizmat turlari va mintaqaviy yo'nalishlar tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, turizm xizmatlari umumiy xizmatlar eksportida ikkinchi o'rinda turadi va qo'shni davlatlar bilan aloqalar ustuvor ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida SWOT, tarkibiy, dinamik va solishtirma tahlil usullari qo'llanildi. Xulosa va takliflar qismida turizm eksportini yanada rivojlantirish uchun infratuzilma, raqamli marketing, hududiy diversifikatsiya va norasmiy institutlar salohiyatidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari, eksport, statistik tahlil, mintaqaviy hamkorlik, O'zbekiston.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКСПОРТА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РАЗВИТИЯ: ПОДХОД НА ОСНОВЕ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Бахромов Акмал

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается текущее состояние экспорта туристических услуг в Республике Узбекистан на основе статистического анализа. Проанализированы данные за 2018–2024 годы, включая основные виды услуг и региональные направления. Установлено, что туристические услуги занимают второе место в структуре экспорта услуг и в основном ориентированы на страны СНГ. В работе использованы методы SWOT-анализа, структурного и сравнительного анализа. В разделе рекомендаций предлагаются меры по улучшению экспортного потенциала, включая развитие инфраструктуры, цифрового маркетинга, региональной диверсификации и использование потенциала неформальных институтов.

Ключевые слова: туристические услуги, экспорт, статистический анализ, региональное сотрудничество, Узбекистан.

CURRENT STATUS OF TOURISM SERVICES EXPORT IN UZBEKISTAN AND OPPORTUNITIES FOR ITS DEVELOPMENT: AN APPROACH BASED ON STATISTICAL ANALYSIS

Bakhromov Akmal

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the current state of tourism services export in the Republic of Uzbekistan using statistical methods. It examines export data from 2018 to 2024, focusing on key service types and regional trends. The results show that tourism services rank second among all service exports and are predominantly oriented toward neighboring CIS countries. The research employs SWOT, structural, comparative, and time-series analysis. Based on the findings, the paper presents recommendations to boost tourism exports by improving infrastructure, leveraging digital marketing, enhancing regional diversification, and utilizing informal institutions.*

Keywords: *tourism services, export, statistical analysis, regional cooperation, Uzbekistan.*

Kirish.

Xizmatlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida turizm sohasi ko'plab mamlakatlar uchun milliy iqtisodiyotning strategik yo'nalishiga aylanmoqda. Jahon Sayyohlik Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global turizm sektori pandemiyadan so'ng to'liq tiklanish bosqichiga kirib, xalqaro turistlar soni 1,3 milliard kishidan oshgan. Bu raqam 2019-yildagi ko'rsatkichning 88 foiziga tengdir (UNWTO, 2024).

O'zbekiston uchun ham turizm xizmatlarini eksport qilish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. 2024-yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar eksporti hajmi 1,139,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksport hajmining 17,8 foiziga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 9,6 foizga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibida esa sayyohlik (turizm) xizmatlari 40 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi (Statistika qo'mitasi, 2024).

O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, ekologik jihatdan toza hududlari, diniy va ziyorat turizmi salohiyati uni turizm xizmatlarini eksport qilishda mintaqada yetakchi o'ringa chiqara oladigan imkoniyatlaridan biridir. Shu bilan birga, vizasiz rejimlarning kengaytirilishi, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi, "Open Sky" tamoyilining bosqichma-bosqich joriy etilishi kabi islohotlar O'zbekistonning xalqaro turizm maydonida raqobatbardoshligini kuchaytirmoqda (Farmon, 2024).

Shu asosda, mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari eksportining hozirgi holatini statistik tahlil asosida baholash, mavjud imkoniyat va muammolarni aniqlash hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, turizm xizmatlariga xalqaro talabning ortib borayotganligi, ikkinchi tomondan esa, O'zbekistonning ichki islohotlar bilan ushbu yo'nalishni strategik ustuvorlik sifatida belgilaganligida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm xizmatlari eksporti global iqtisodiyotda tashqi savdo balansini mustahkamlash va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu soha iqtisodiy daromad manbai va xalqaro nufuzni oshirish vositasi sifatida qaraladi. Adabiyotlar sharhi ushbu sohadagi mavjud bilimlarni tahlil qilish, bo'shliqlarni aniqlash va tadqiqot yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Xalqaro tadqiqotlar turizm eksportining iqtisodiy samaradorligi va institutsional omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Global turizm eksporti xizmatlar savdosining 25% dan ortig'ini tashkil etadi (UNWTO, 2023). Göçer va Bulut (2020) rivojlanayotgan mamlakatlarda

infratuzilma sifati va raqamli marketing eksport o'sishini ta'minlashda muhim ekanligini ko'rsatdi, ammo marketingning sustligi salohiyatni cheklaydi. Gretzel va boshqalar (2015) raqamli texnologiyalarning, xususan, sun'iy intellekt va IoT asosidagi platformalarning sayyohlarni jalb qilishda samaradorligini ta'kidlaydi, biroq O'zbekiston kabi mamlakatlarda bu texnologiyalarni joriy etish cheklanganligini qayd etdi.

Mahalliy adabiyotlarda Norchayev (2021) O'zbekiston turizm infratuzilmasining eksport salohiyatidagi rolini tahlil qildi, lekin xalqaro raqobatbardoshlik masalalariga kam e'tibor berdi. Raximova (2024) raqamli innovatsiyalarni joriy etishni taklif qildi, ammo amaliy mexanizmlarni aniq ko'rsatmadi. Jumaniyazova (2024) norasmiy institutlarning (madaniy yaqinlik, til o'xshashligi) Markaziy Osiyo sayyohlar oqimini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi, bu mintaqaviy hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi.

Xalqaro tajribalar Turkiya va Ispaniya misolida muvaffaqiyatli strategiyalarni ko'rsatadi. Turkiya 2023–yilda 49 milliard AQSh dollari eksport daromadi oldi, bu infratuzilma va raqamli marketingning uyg'unligi natijasidir (WTTC, 2024). Ispaniyaning "Turismo España" (2023) brendi global bozorda 85 million sayyohni jalb qildi. Bu tajribalar O'zbekiston uchun brending va diversifikatsiya bo'yicha saboq beradi.

Nazariy jihatdan, institutsional nazariya rasmiy (vizasiz rejimlar) va norasmiy (madaniy yaqinlik) institutlarning eksportdagi rolini ta'kidlaydi (North, 1990). Biroq, mahalliy adabiyotlarda norasmiy institutlarning miqdoriy tahlili cheklangan, bu tadqiqot bo'shlig'i sifatida aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari eksportining hozirgi holatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini baholashga qaratilgan bo'lib, **deskriptiv-statistik** va **analitik-tahliliy** metodlarga tayandi. Ma'lumotlar manbalari sifatida Davlat statistika qo'mitasi, UNWTO, Jahon banki, WTTC (World Travel and Tourism Council), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining ochiq axborotlari va rasmiy hisobotlaridan foydalanildi.

Tahlil uchun 2018–2024–yillar mobaynidagi turizm xizmatlari eksporti ko'rsatkichlari, transport va joylashtirish xizmatlari bo'yicha statistik ma'lumotlar, vizasiz rejimlar joriy etilishi ta'siridagi turistlar oqimi dinamikasi asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qildi. Asosiy statistik ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz)
- Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO)
- WTTC – Travel & Tourism Economic Impact Reports
- Jahon bankining mamlakat bo'yicha hisobotlari

Tadqiqot doirasida quyidagi **ilmiy-tahliliy va statistik usullar** qo'llanildi:

- **Deskriptiv statistika** — turizm eksportining hajmi, uning xizmatlar eksportidagi ulushi, o'sish sur'atlari va yo'nalishlar bo'yicha tasviriyl tahlil;
- **Tarkibiy tahlil** — xizmatlar eksporti ichida turizm xizmatlarining o'rni, asosiy xizmat turlari (transport, joylashtirish, ekskursiya xizmatlari) bo'yicha tarkibiy tahlil;
- **Vaqt qatorlari tahlili** — 2018–2024–yillar mobaynidagi eksport ko'rsatkichlari asosida dinamikani tahlil qilish va prognoz qilish imkonini beradi;
- **Solishtirma tahlil** — boshqa davlatlar tajribasi (Turkiya, Ispaniya, Qozog'iston) bilan O'zbekiston modelini solishtirish;
- **Ekspert baholash** — turizm sohasi mutaxassislari fikrlari asosida asosiy to'siq va imkoniyatlar baholandi.

Tahlil ishlari uchun **MS Excel** hamda **STATA** dasturlaridan foydalanildi. Vaqt qatorlari uchun trend chiziqlari va regressiya tahlillari amalga oshirildi. Bunda prognozlash imkoniyatlari ham sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot cheklovlari quyidagilardan iborat:

- Ba’zi statistik ma’lumotlarning so’nggi yillar uchun rasmiy manbalarda mavjud emasligi;
- Turizm xizmatlari eksportini to’liq qiymatli baholash uchun talab va iste’mol tarafidagi (ya’ni turistlar tomonidan sarflangan mablag’lar hajmi) indikatorlarning cheklanganligi;
- Norasmiy institutlar (madaniy aloqalar, diaspora, til yaqinligi) ta’sirini miqdoriy o’lchashdagi qiyinchiliklar.
- Shu bilan birga, mavjud ma’lumotlar va metodologik baza tadqiqotning amaliy va ilmiy ahamiyatini saqlab qolishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ushbu tadqiqot doirasida O’zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari eksportining dinamikasi, tarkibiy o’zgarishlari, eksport yo’nalishlari hamda mintaqaviy diversifikatsiya darajasi tahlil qilindi. Natijalarga ko’ra, O’zbekiston turizm xizmatlari eksportida o’sish sur’atlarini saqlab qolayotgan bo’lsada, ushbu soha hali ham yuqori salohiyatga ega bo’lgan holda to’liq rivojlanmagan segmentlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

2024-yilning yanvar–mart oylarida O’zbekistonda xizmatlar eksporti hajmi 1,139,4 mln AQSh dollarini, ya’ni umumiy eksport hajmining 17,8 foizini tashkil etdi. Shundan turizm xizmatlari eksportining ulushi 40,0% bo’lib, bu xizmatlar eksporti tarkibidagi eng yirik segmentlardan biri hisoblanadi. Taqqoslash uchun, 2023-yilning shu davriga nisbatan umumiy xizmatlar eksporti 9,6% ga oshgan bo’lsa, turizm xizmatlari eksportidagi o’sish 2022-yilga nisbatan 13,4% ni tashkil etgan (Statistika qo’mitasi, 2024).

O’zbekiston xizmatlar eksportining ichki tarkibini tahlil qilish, ayniqsa turizm eksportining boshqa xizmat turlari bilan solishtirilganda tutgan o’rni va dinamikasini chuqurroq ko’rsatib beradi. Quyidagi jadvalda 2024-yilning birinchi choragida xizmatlar eksportining asosiy turlari va ularga to’g’ri keladigan ulushlar ko’rsatilgan. Bu ma’lumotlar, xizmatlar ichida aynan turizm eksportining strategik ahamiyatga ega ekanligini aniq aks ettiradi.

1-jadval

O’zbekistonda xizmatlar eksportining tarkibiy tuzilmasi (2024-y. 1-chorak, mln AQSh dollari)


Xizmatlar turi	Hajmi (mln USD)	Umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi (%)
Transport xizmatlari	529	46,40%
Sayohat (turizm) xizmatlari	455,8	40,00%
Telekom, IT va axborot xizmatlari	76,3	6,70%
Boshqa tadbirkorlik xizmatlari	33	2,90%
Sug’urta va pensiya xizmatlari	16	1,40%
Moliyaviy xizmatlar	10,3	0,90%
Intellectual mulkdan foydalanish	7,8	0,70%
Jami	1 139,40	100%

Manba: O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu jadvaldan ko’rinib turibdiki, turizm xizmatlari (sayohat) transport xizmatlaridan keyin xizmatlar eksportidagi ikkinchi yirik segment hisoblanadi. Bu ko’rsatkich O’zbekistonda turizm sektorining tashqi savdo balansidagi o’rni tobora ortib borayotganini va uni chuqurlashtirilgan diversifikatsiya, marketing siyosati va xalqaro hamkorlik asosida yanada kengaytirish mumkinligini anglatadi.

Sayohat xizmatlari eksportining asosiy qismini transport xizmatlari, joylashtirish xizmatlari va ekskursion xizmatlar tashkil qiladi. Bu xizmatlar turistlarning O’zbekistonga bo’lgan dastlabki talablarini aks ettiradi. Shu bilan birga, qo’shimcha xizmatlar – gastronomik

tajriba, sog'lomlashtirish, ekoturizm va ziyorat turizmi bo'yicha xizmatlar eksporti sezilarli darajada rivojlanmaganligi aniqlangan. Bu esa xizmatlarni **chuqur diversifikatsiya qilish zarurligini** ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar tarkibi (2023-yil)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalar asosida 2024-yil boshida mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni va ularning kelib chiqish mamlakatlari bo'yicha quyidagi chizma shakllantirildi. Bu grafik O'zbekiston xizmatlar eksportida aynan turizm segmentining regional xarakterini yaqqol ko'rsatib beradi. Ayniqsa, qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston)dan kirib kelayotgan turistlar sonining yuqoriligi hududiy hamkorlik va chegaraviy turizmning salohiyatini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning turizm xizmatlari eksporti asosan qo'shni davlatlar va MDH mamlakatlariga yo'naltirilgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning 72 foizi aynan MDH mamlakatlari (Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston) fuqarolari hisoblanadi (Statistika qo'mitasi, 2024).

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning turizm xizmatlari eksporti hali ham to'liq shakllanmagan marketing va brendlash siyosati tufayli xalqaro bozorda Turkiya, Ispaniya kabi mamlakatlarga nisbatan pastroq darajada qolmoqda. Masalan, Turkiya 2023-yilda turizm xizmatlari eksportidan 49 milliard dollar daromad olgan (WTTC, 2024).

Tahlil natijalari quyidagi asosiy cheklovchi omillarni ko'rsatdi:

- **Infratuzilmadagi muammolar:** havo qatnovi, yo'llar, mehmonxonalar sifati va soni jihatidan ayrim yo'nalishlarda cheklovlar mavjud;

- **Marketing va raqamli texnologiyalardan foydalanishning sustligi:** xorijiy auditoriyaga yetarli reklama materiallarining yo'qligi;

- **Xalqaro brend va imidj masalalari:** O'zbekiston turizm yo'nalishlari hali jahon bozorida to'liq shakllanmagan;

- **Norasmiy institutlar imkoniyatlarining yetarli o'rganilmaganligi:** bu imkoniyatlar turizm oqimini oshirishda muhim omil bo'lishiga qaramay, tahlil va prognozlashda deyarli hisobga olinmaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar eksporti, xususan, turizm xizmatlari eksportining salmog'i barqaror o'sib borayotganini statistik ma'lumotlar isbotlamoqda. 2024-yilning birinchi choragida xizmatlar eksporti hajmi 1 139,4 mln AQSh dollarini tashkil etib, bu umumiy eksportning 17,8 foiziga teng bo'ldi. Shu jumladan, sayohat

(turizm) xizmatlari 455,8 mln dollarlik ulush bilan ikkinchi o'rinda turmoqda, bu xizmatlar eksportidagi muhim strategik salohiyatni anglatadi (WTTC, 2024).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm xizmatlari eksportining o'sishiga bir necha omillar ta'sir qilmoqda: vizasiz rejimlarni kengaytirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va mintaqaviy hamkorlikning kengayishi. Shu bilan birga, eksport tarkibida transport xizmatlari bilan birgalikda turizm xizmatlari asosiy ulushni egallab kelmoqda. Bu esa O'zbekistonning transport-logistika imkoniyatlari va turizm salohiyati o'rtasida sinergiya mavjudligini anglatadi.

2022–2024–yillar davomida turizm eksporti hajmi 12–13% oralig'ida o'sdi. Bu dinamik ko'rsatkichlar xizmatlar sektorida aynan turizm eng tez sur'atda rivojlanayotgan tarmoq ekanini ko'rsatadi. Xususan, 2023–yilda O'zbekistonga 7,2 mln dan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 36,8% Qozog'iston, 21,8% Tojikiston va 12,6% Qirg'izistondan kelgan. Bu esa O'zbekiston turizm xizmatlari eksportida qo'shni davlatlar bilan yaqin aloqalarga tayangan model ustuvorligini tasdiqlaydi (Turismo Espana, 2023).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional islohotlar, ayniqsa viza siyosatining liberallashuvi, turizm infratuzilmasiga investitsiya jalb qilish, transport-kommunikatsiya tizimini modernizatsiya qilish eksportni oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, norasmiy institutlar — madaniy yaqinlik, til o'xshashligi, tarixiy aloqalar — ayniqsa qo'shni davlatlar bilan sayyohlar almashinuvida samarali rol o'ynamoqda. Bu omil ayniqsa Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston kabi davlatlar bilan bo'lgan aloqalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, Malayziya, Turkiya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlarda raqamli marketing, halol turizm va madaniy meros asosida servislar eksporti samarali tashkil etilgan. O'zbekiston uchun bu tajribalar ayniqsa halol turizm infratuzilmasini yaratish, turizm brendini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani kengaytirish kabi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, eksport tarkibidagi barqarorlikni ta'minlash uchun safarning mavsumiyligiga bog'liq risklarni kamaytirish, diversifikatsiyalashgan turistik yo'nalishlarni taklif etish va ekoturizm, gastronomik turizm, sog'lomlashtirish turizmi kabi yangi yo'nalishlarni ilgari surish dolzarb bo'lib bormoqda. Ayni vaqtda mavjud turist oqimining 70% dan ortig'i faqat 4–5 shaharga (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva) to'g'ri kelayotgani, boshqa hududlarda potensial to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Statistik tahlillar shuni anglatadiki, O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish uchun mavjud salohiyat yuqori, ammo bu salohiyatni to'laqonli ishga solish uchun tizimli yondashuv, institutsional innovatsiyalar, hududiy diversifikatsiya va raqamli marketing strategiyalarining uyg'unligi talab etiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning turizm xizmatlari eksportidagi mavjud salohiyati chuqur iqtisodiy, institutsional va mintaqaviy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, statistik tahlillar ushbu soha milliy iqtisodiyotda tobora muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi. 2024–yilning dastlabki uch oyida xizmatlar eksporti hajmi 1,1 mlrd AQSh dollaridan oshib, umumiy eksportning 17,8 foizini tashkil qilgan bo'lsa, turizm xizmatlarining bu tarkibdagi ulushi 40% atrofida bo'ldi (Statistika qo'mitasi, 2024). Bu esa, ushbu tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa qo'shni davlatlar va mintaqaviy hamkorlik doirasida eksport hajmini oshirish muhimligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning turizm xizmatlari eksporti asosan Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston kabi yaqin geografik va madaniy jihatdan bog'liq bo'lgan mamlakatlar bilan faol aloqalarda rivojlanmoqda. Bu esa, norasmiy institutlarning – til yaqinligi, umumiy tarixiy va diniy meros, diasporaviy aloqalar kabi omillarning – turizm eksportidagi rolini kuchaytiradi.

Shuningdek, xorijiy tajriba tahlili (Turkiya, Malayziya, Ispaniya, Italiya, Qozog'iston misolida) shuni ko'rsatadiki, turizm eksportining muvaffaqiyati quyidagi omillarga asoslanadi:

- Turizm sohasida davlat siyosatining uzluksizligi va aniq strategik yondashuvlar mavjudligi;

- Davlat–xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma rivoji;
- Mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarda turistik brend sifatida ilgari surish;
- Turizmning yangi tarmoqlarini – gastronomik, sog'lomlashtirish, halol turizm, ekologik yo'nalishlarni – faol joriy etish.

Bu asosda quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish:

- Turizm eksportini tartibga soluvchi normativ–huquqiy hujjatlar takomillashtirilsin.
- Turizm sohasida davlat–xususiy sheriklikni kengaytirish bo'yicha normativ baza mustahkamlasin.

- Halol turizm, ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi kabi yo'nalishlar bo'yicha huquqiy asoslar yaratilishi lozim.

2. Norasmiy institutlarning salohiyatidan samarali foydalanish:

- Diasporalar bilan ishlash mexanizmlarini turizm marketingi bilan bog'lash kerak.
- Qo'shni davlatlar bilan transchegaraviy turizm marshrutlarini yaratishda madaniy umumiylik va tarixiy merosdan foydalanish zarur.

3. Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish:

- Qo'shni davlatlar bilan bog'lovchi temir yo'l, avtomobil va aviaqatnov infratuzilmasi kengaytirilsin.

- "Open Sky" siyosatini bosqichma–bosqich joriy etish orqali mintaqaviy va xalqaro turistik oqimlar rag'batlantirilsin.

4. Marketing strategiyasini yangilash va brending:

- "Visit Uzbekistan", "Halal Silk Road" yoki "Spiritual Heritage Tours" kabi xalqaro e'tiborni tortuvchi brendlarni ishlab chiqish zarur.

- Xalqaro sayyohlik yarmarkalari, ko'rgazmalarda doimiy qatnashish, raqamli marketing (Google Ads, TripAdvisor, Booking) imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak.

5. Hududiy diversifikatsiyani ta'minlash:

- Faqat yirik shaharlargagina emas, balki vohalar, tog'li hududlar, cho'l zonalari va transchegaraviy yo'nalishlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish kerak.

- Mahalliy aholini kichik biznesga jalb etish orqali oilaviy mehmonxonalar va mahalliy xizmatlarni eksportga yo'naltirish mexanizmlari yaratilishi kerak.

6. Tahliliy bazani takomillashtirish va prognoz modellarini ishlab chiqish:

- Turistlar oqimi, sarf–xarajatlar, xizmatlar eksporti hajmi bo'yicha prognozlash tizimlari STATA yoki SPSS dasturlari asosida ishlab chiqilishi lozim.

- Barqaror turizm uchun indikatorlar to'plami joriy etilishi va muntazam monitoring olib borilishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportining zamonaviy bosqichda rivojlanishi uchun mavjud infratuzilma va inson kapitali salohiyatidan to'liq foydalanish, xalqaro tajriba va raqamli texnologiyalar asosida yangi mexanizmlarni joriy etish zarur. Eksport tarkibida turizmning o'rnini mustahkamlash uchun davlat siyosati, xususiy tashabbus va mintaqaviy integratsiya uyg'unligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Bakhromov, A. (2023). Turizm xizmatlari eksportini oshirishda innovatsion marketing va raqamli texnologilayar ta'siri. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(maxsus son).

Bakhromov, A., Juraeva, N., Nurfayzieva, M., Oppokkhonov, N., & Egamnazarov, K. (2023). Sun'iy intellektning turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdagi o'rnini. *Academic research in educational sciences*, 4(6), 23–31.

Göçer, İ., & Bulut, Ş. (2020). Tourism exports and economic growth: An analysis of developing countries. *Journal of Tourism and Services*, 11(20), 45–60.

- Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188.
- Jumaniyazova, R. Sh. (2024). Turizm infratuzilmasi tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 2, 45–52.
- Norchayev, A. N. (2021). Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanishi. Toshkent: TDIU.
- North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Xizmatlar eksporti bo'yicha 2024–yil yanvar–mart hisobotlari. Retrieved from <https://stat.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). PF-9–son Farmon: Respublikaga xorijiy turistlar oqimini oshirish va ichki turizmni jadallashtirish bo'yicha chora–tadbirlar to'g'risida. Retrieved from <https://lex.uz>
- Raximova, U. Z. (2024). Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. *Iqtisodiyot va turizm*, 1, 136–142.
- Turismo España. (2023). *Annual Report*. Madrid: Spanish Tourism Agency.
- UNWTO. (2023). *International Tourism Highlights – Uzbekistan country profile*. Retrieved from <https://www.unwto.org>
- UNWTO. (2023). *Uzbekistan Country Report: Xalqaro turistlar statistikasi*. Retrieved from <https://www.unwto.org>
- UNWTO. (2023). *World Tourism Barometer (Vol. 21, Issue 3)*. Madrid: UNWTO Publications.
- UNWTO. (2024). *World Tourism Barometer (Vol. 22, Issue 1)*. Retrieved from <https://www.unwto.org>
- WTTC. (2024). *Travel & Tourism Economic Impact 2023 – Turkey*. London: WTTC. Retrieved from <https://wtcc.org>